

“Raqamli iqtisodiyot va axborot texnologiyalari” elektron ilmiy jurnali



№ 1 (5), yanvar-mart, 2022-yil

SANKSIYALARNING O‘ZBEKISTON OZIQ-OVQAT MAHSULOTLARIGA TA’SIRINI TADQIQ QILISH

ISHNAZAROV Akrom Ismoilovich

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
Iqtisodiyotda matematik metodlar kafedrasida dotsenti

ABDURAXMANOVA Zuxra Toxir qizi

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
Iqtisodiyotda matematik metodlar kafedrasida assistenti
hasanovazuxra402@gmail.com

Annotatsiya: O‘shib borayotgan xalqaro keskinlik jahon oziq-ovqat bozoridagi salbiy tendensiyalarni yanada kuchaytirdi. Ishlab chiqarishning pasayishi kutilayotgan mamlakatlar orasida Avstraliya, Hindiston, Marokash va Ukraina bor. Rossiyada esa aksincha, o‘shish bo‘lishi mumkin. Tashqi omillar ta’sirida atrofda bo‘lib o‘tayotgan voqealar O‘zbekistonni chetlab o‘tmaydi. Xalqaro siyosiy beqarorlik fonida avj olgan oziq-ovqat inqirozi O‘zbekiston uchun turli muammolarni keltirib chiqarmoqda va oziq-ovqat narxlarining o‘shishi qashshoqlik chegarasidan past bo‘lgan odamlar sonining keskin o‘shishiga olib keladi. O‘zbekistonning oziq-ovqat xavfsizligini ta’minlashning asosiy muammosi sifatida ichki bozorga oziq-ovqat mahsulotlarini yetkazib beruvchi asosiy mamlakatlarda oziq-ovqat mahsulotlarini eksport qilishni cheklashdir.

Kalit so‘zlar: Sanksiya, inflatsiya, oziq-ovqat xavfsizligi, eksport, import, oziq-ovqat narxlar indeksi.

Abstract: The growing international tension has intensified the negative trends in the world food market. Countries expected to see production declines include Australia, India, Morocco and Ukraine. In Russia, on the contrary, there may be growth. Events taking place under the influence of external factors do not bypass Uzbekistan. The food crisis, which has escalated against the background of international political instability, is causing various problems for Uzbekistan, and the increase in food prices is leading to a sharp increase in the number of people living below the poverty line.

The main problem of ensuring food security of Uzbekistan is to limit the export of food products in the main countries that supply food products to the domestic market.

Key words: Sanction, inflation, food security, export, import, food price index.

Аннотация: Рост международной напряженности усилил негативные тенденции на мировом рынке продовольствия. Страны, в которых ожидается снижение производства, включают Австралию, Индию, Марокко и Украину. В России, наоборот, может быть рост. События, происходящие под влиянием внешних факторов, не обходят стороной и Узбекистан. Продовольственный кризис, обострившийся на фоне международной политической нестабильности, создает различные проблемы для Узбекистана, а рост цен на продукты питания приводит к резкому увеличению числа людей, живущих за чертой бедности. Основной проблемой обеспечения продовольственной безопасности Узбекистана является ограничение экспорта продовольственных товаров в основные страны, поставляющие продовольственные товары на внутренний рынок.

Ключевые слова: санкции, инфляция, продовольственная безопасность, экспорт, импорт, индекс цен на продовольствие.

Kirish

Oziq-ovqat xavfsizligi butun dunyo mamlakatlari oldida turgan eng dolzarb vazifalardan biridir. BMT ham bugun oziq-ovqat mahsulotlarini yetishtirish va ularni taqsimlash bo'yicha yondashuvni mutlaqo o'zgartirish vaqti kelganini ta'kidlayapti. Zero, ideal holatda qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaliklari barchani oziq-ovqat bilan to'liq ta'minlash va odamlar uchun risoladagidek daromad manbaini yaratib berishga qodir. Boz ustiga, bunday holatda inson manfaatlari yo'lida ham qishloq xo'jaligi rivojlanadi, ham atrof muhitni muhofaza qilish bo'yicha chora-tadbirlar ijrosi ta'minlanadi. Shunday ekan, oziq-ovqat xavfsizligini masalasi barcha davlatlar qatori O'zbekistonning ham mustaqilligi, ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy barqarorligini ta'minlash garovi hisoblanadi. Yurtimizda bu muammo hamon o'z dolzarbligini yo'qotmagan. Zero, ayni paytda oziq-ovqat mahsulotlariga bo'lgan talab oshyapti, aholi soni o'sishi asnosida jon boshiga iste'mol ko'paymoqda. 2022-yilning 24-fevral kuni Rossiyaning armiyasi Ukrainada jangovar harakatlarni boshladi. Ushbu urush jahonning ko'plab davlatlaridagi oziq-ovqat xavfsizligiga tahdid solib, bu boradagi ta'minotning shusiz ham zaif bo'lgan global muvozanatini buzdi.

Ayni damda O'zbekiston hukumati yuzaga kelayotgan tahdidlarni muvaffaqiyat bilan bartaraf etishga erishyapti, lekin asosiy muammolar hali oldinda. O'zbekistonda oziq-ovqat xavfsizligini tahlil qildigan bo'lsak. O'zbekistonga import qilinadigan jami oziq-ovqat mahsulotlarining 60 foizdan ortig'ini yuqori

kaloriyali asosiy mahsulotlar, xususan, don va don mahsulotlari, o'simlik yog'i va uni ishlab chiqarish uchun xomashyo, shuningdek, shakar tashkil etadi. Import konyunkturasidagi o'zgarishlarga chorva uchun ozuqa toifasi va kamroq darajada go'sht importi sezgirdir. Bu tovarlarning barchasi bo'yicha O'zbekiston netto-importyor hisoblanadi, demak, import rejimlari o'zgarishi, import qilinadigan tovarlarning mavjudligi hamda import mahsulotlarining narxlari ichki oziq-ovqat bozori va xavfsizligiga sezilarli ta'sir ko'rsatishi mumkin. Faqat sabzavot va mevalar bo'yicha (kartoshkadan tashqari) O'zbekistonda oziq-ovqat xavfsizligi nuqtai nazaridan vaziyat nisbatan yaxshi [6].

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili

O'zbekistonda oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash aholi turmush darajasini va sifatini oshirish maqsadida hozirgi kunda respublikamizda bu borada ilmiy amaliy konfrensiyalar shuningdek oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashda bir qancha iqtisodiy va tahlillar o'tkazilmoqda. Shu tahlillardan A.O.To'xtamurodovning "O'zbekistonda oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash darajasini ekonometrik tahlili" nomli maqolasida, qishloq xo'jaligi yalpi mahsulotiga qishloq xo'jaligiga kiritilgan investitsiyalar miqdorining qay darajada ta'sir etish bog'liqligi ekonometrik usulda tekshirgan [1].

J.SH.To'xtamurodovning "Istemol mahsulotlarining ishlab chiqarishning xavfsizligini ta'minlanish tahlili" nomli maqolasida "Yer va suv resurslaridan oqilona foydalanish maqsadida

qishloq xo'jaligi ekin maydonini maqbullashtirish" bo'yicha paxta va g'alla ekin maydonlarini qisqartirish uning o'rniga boshqa qishloq xo'jaligi ekinlarini joylashtirish bo'yicha takliflar kiritilgan. Bunga ko'ra Respublikada asosiy moyli ekinlar yetishtirish hajmi oshganligi va unda Qashqadaryo viloyatida o'simlik moyi yetishtirish yetakchi o'rinni egallaganligi tahlil qilingan [2].

Dunyoda yuzaga kelgan 24-fevraldan keyingi voqealar bug'doy, o'simlik yog'i, makkajo'xori va arpaning eng yirik eksportchilari bo'lgan Ukraina va Rossiyaga bevosita ta'sir qildi. Natijada FAO narxlari indeksi 2022-yil may oyida 157,4 punktga, don mahsulotlari narxlari indeksi esa 173 punktga ko'tarildi. 2021-yilning yanvar-mart oylariga nisbatan joriy yilda respublikaning tashqi savdo aylanmasida oziq-ovqat mahsulotlari importining ulushi va hajmini yuqori sur'atlarda o'sishiga ta'sir ko'rsatgan omillar tahlili asosida sabablar davlat statistika va davlat bojxona qo'mitalarining ma'lumotlariga muvofiq joriy yil yanvar-mart oylarida mamlakat oziq-ovqat mahsulotlari importining tarkibi 2021-yil importining tarkibiga nisbatan sezilarli darajada o'zgargan. Xususan, margarin va o'simlik yog'i, go'sht, kartoshka va boshqa qishloq xo'jaligi mahsulotlari ulushi ortgan. Shu bilan birga kartoshka va bug'doy eksport va importining narx indekslari 2021-2022-yil oraliqlarida o'zgarishlar tahlili [3,4].

Ma'mlakatimizda 2022-yil yakunlari bo'yicha inflyatsiya darajasi yillik 8-9% atrofida bo'lishi kutilgan edi. Biroq, bugungi kundagi tashqi xatarlar kuchayib borayotgan sharoitlarda jahonda asosiy turdagi oziq-ovqat va nooziq-ovqat mahsulotlari hamda energiya resurslari narxining sezilarli darajada qimmatlashib borayotgani va uning ichki narxlarga yuqori o'tuvchi ta'sirlaridan kelib chiqib, inflyatsiyaning o'rta muddatli prognozi qayta ko'rib chiqildi. Hisob-kitoblarga ko'ra, 2022-yilning II choragidan boshlab inflyatsiya ko'rsatkichi tezlashadi va yil yakuniga kelib yillik inflyatsiya darajasi 12-14% atrofida bo'lishi kutilmoqda bu ma'lumotlar davlat statistika qo'mitasining maxsus saytlaridan olingan [5,6].

Tadqiqot metodologiyasi

Sanksiyalarning O'zbekiston oziq-ovqat mahsulotlariga ta'sirini tadqiq qilishda biz statistik metoddan foydalandik [1]. 2021-2022-yillarda O'zbekistonda aholining oylik daromadlari va ularning oziq ovqatga bo'lgan ehtiyojlari [3], [4] da ko'rsatilgan yuzaga kelgan muammolarni O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi ma'lumotlari asosida 2021-

2022 yillar uchun hisoblab chiqdik. Shuningdek mamlakatdan eksport va import qilingan mahsulotlar bo'yicha tahlil o'tqazdik [3] ma'lumotlari asosida. Aholini shu yillarda O'zbekistonda yanvar va may oylarida yuzaga kelgan inflatsiya darajasi shuningdek, oziq-ovqat yoki nooziq ovqat mahsulotlariga bo'lgan talablarini o'zgarishlarni [5] ma'lumotlari asosida ko'rib chiqdik va shu davrda aholini qanday mahsulotlarga bo'lgan talabini oshganligini ko'rdik.

Tahlil va natijalar

Oziq-ovqat mahsulotlari importining umumiy hajmini o'sishiga o'rtacha import narxlarining qimmatlashuvi qariyb 55-60 % darajasida ta'sir ko'rsatgan bo'lsa, import qilingan mahsulotlar va ulardan tayyorlangan mahsulotlar eksporti hajmining o'sishi 40-45 % ta'sir ko'rsatganini ko'rishimiz mumkin. Mamlakatimizda tashqi savdoni liberallashtirish, turli xil ta'rif va nota'rif cheklovlarni kamaytirish, monopoliyani bartaraf etish choralari bosqichma-bosqich amalga oshirish. Shuningdek, tashqi savdo geografiyasi, mahsulot va xomashyo turlari hamda reteylerlar va ta'minotchi davlatlarni diversifikatsiya qilish orqali iqtisodiyotning barqaror o'sishi, aholini oziq-ovqat mahsulotlariga bo'lgan talabini qondirish va narxlar barqarorligini ta'minlash borasida ham amaliy choralar ko'rish lozim. Shu bilan birga O'zbekistonning oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashning asosiy muammosi sifatida ichki bozorga oziq-ovqat mahsulotlarini yetkazib beruvchi asosiy mamlakatlarda oziq-ovqat mahsulotlarini eksport qilishni cheklashdir.

O'sib borayotgan xalqaro keskinlik jahon oziq-ovqat bozorida salbiy tendensiyalarni yanada kuchaytirdi. Ishlab chiqarishning pasayishi kutilayotgan mamlakatlar orasida Avstraliya, Hindiston, Marokash va Ukraina bor. Rossiyada esa aksincha, o'sish bo'lishi mumkin. Tashqi omillar ta'sirida atrofda bo'lib o'tayotgan voqealar O'zbekistonni chetlab o'tmaydi. Xalqaro siyosiy beqarorlik fonida avj olgan oziq-ovqat inqirozi O'zbekiston uchun turli muammolarni keltirib chiqarmoqda va oziq-ovqat narxlarining o'sishi qashshoqlik chegarasidan past bo'lgan odamlar sonining keskin o'sishiga olib keladi. O'zbekistonning oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashning asosiy muammosi sifatida ichki bozorga oziq-ovqat mahsulotlarini yetkazib beruvchi asosiy mamlakatlarda oziq-ovqat mahsulotlarini eksport qilishni cheklashdir. Dunyoda yuzaga kelgan 24-fevraldan keyingi voqealar bug'doy, o'simlik yog'i,

makkajo'xori va arpaning eng yirik eksportchilari bo'lgan Ukraina va Rossiyaga bevosita ta'sir qildi. Natijada FAO narxlar indeksi 2022-yil may oyida 157,4 punktga, don mahsulotlari narxlar indeksi esa 173 punktga ko'tarildi. O'tgan yilning shu davriga nisbatan oziq-ovqat va don mahsulotlari narxlar mos ravishda 22 va 31%ga oshgan. Ekin yetishtirishga xolis yondashadigan bo'lsak, FAO 4 yil ichida birinchi marta jahon bozorida bug'doy yetishtirishning 0,8%ga kamayib, 771 million tonnaga yetishini bashorat qilmoqda. O'zbekiston Markaziy bankining chorak bo'yicha taqdim etgan havolasida, o'tgan 2020 va 2021-yillarda ko'plab davlatlarda noqulay ob-havo sharoitlari fonida asosiy oziq-ovqat mahsulotlari hosilining kutilganidek bo'lmagani, ishchi kuchi yetishmasligi, mahsulot eksportiga qo'yilgan ta'qiqlar, ta'minot va yetkazib berish zanjiridagi uzilishlar, shuningdek, uy xo'jaliklarining iste'moli asosan oziq-ovqat mahsulotlariga yo'naltirilgani kabi bir qator omillar ta'sirida jahon bozorida asosiy turdagi oziq-ovqat mahsulotlari narxining keskin o'sishi kuzatildi, deya tahlil qilinadi. Jahonda oziq-ovqat tovarlari narxining alternativ ko'rsatkichi

hisoblangan FAO indeksida ham yuqoridagi holatlar o'z aksini topgan bo'lib, 2021-yilda asosiy turdagi oziq-ovqat mahsulotlarning yillik hisobda qimmatlashishi o'tgan 20-yildagi eng yuqori ko'rsatkichni qayd etdi. Tahlilchilar tomonidan joriy oziq-ovqat hamda ozuqa-yem mahsulotlari bo'yicha talab va taklif o'rtasida yuzaga kelgan nomunosiblik sababli ushbu mahsulotlarning narxlar yana **8-22%gacha** qimmatlashishi mumkinligi ta'kidlanmoqda. Yil boshida e'lon qilingan prognozlariga ko'ra, 2022-yil yakunlari bo'yicha inflyatsiya darajasi yillik **8-9%** atrofida bo'lishi kutilgan edi. Biroq, bugungi kundagi tashqi xatarlar kuchayib borayotgan sharoitlarda jahonda asosiy turdagi oziq-ovqat va noziq-ovqat mahsulotlari hamda energiya resurslar narxining sezilarli darajada qimmatlashib borayotgani va uning ichki narxlarga yuqori o'tuvchi ta'sirlaridan kelib chiqib, inflyatsiyaning o'rta muddatli prognozi qayta ko'rib chiqildi. Hisob-kitoblarga ko'ra, 2022-yilning II choragidan boshlab inflyatsiya ko'rsatkichi tezlashadi va yil yakuniga kelib yillik inflyatsiya darajasi 12-14% atrofida bo'lishi kutilmoqda.

1-jadval

O'zbekistonda 2021-2022-yillar oralig'idagi oziq-ovqat inflatsiyasi tegishli oylarga nisbatan

Oziq-ovqat inflatsiyasi

	Yanvar	Fevral	Mart	April	May
Oylik inflatsiya	1.30%	0.60%	2.50%	2.10%	1.20%
Yillik inflatsiya	13.10%	13.10%	14.50%	13.40%	14.20%

Manba: O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi ma'lumotlari <https://kun.uz/uz/82741540>

O'zbekistonning oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashning asosiy muammosi sifatida ichki bozorga oziq-ovqat mahsulotlarini yetkazib beruvchi asosiy mamlakatlarda oziq-ovqat mahsulotlarini eksport qilishni cheklashdir. Masalan, Qozog'iston don va un eksport qilish kvotalari muddatini 30-sentabrgacha uzaytirdi. Avvalroq, Rossiya 30-iyungacha don eksportiga ham cheklovlar kiritgan edi, ular **11 million tonna**, shu jumladan **8 million tonna** bug'doy kvotasi bilan cheklangan. Xalqaro siyosiy beqarorlik fonida avj olgan oziq-ovqat inqirozi O'zbekiston uchun turli muammolarni keltirib chiqarmoqda. **Birinchi**dan, oziq-ovqat narxlarining o'sishi qashshoqlik chegarasidan past bo'lgan odamlar sonining keskin o'sishiga olib keladi. **Ikkinchi**dan, oziq-ovqat narxining oshishi ijtimoiy keskinlikning kuchayishiga olib keladi, bu esa o'z-o'zidan norozilik

namoyishlariga o'tadi. **Uchinchi**dan, Afg'oniston energiya va oziq-ovqat narxlarining ko'tarilishi natijasida yuzaga kelgan gumanitar falokat uchun potentsial nuqta hisoblanadi, bu esa ochlik muammosini yanada kuchaytiradi.

Shunday qilib, bularning barchasi mamlakat hukumatidan aholining ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlamlari uchun inqiroz oqibatlarini yumshatish uchun tezkor choralar ko'rish va zarur qarorlar qabul qilishga tayyor bo'lishni talab qiladi. Rossiya ham, Ukraina ham Markaziy Osiyoga ko'plab turdagi asosiy oziq-ovqat mahsulotlarini yetkazib beradi. Shakar, don, bug'doy, yog', urug'lar, un, go'sht va boshqalar Rossiya, Yevropa ittifoqi, Qozog'iston va Belarusdan keladi. Urush va sanksiyalar ishlab chiqarish quvvatini pasaytiradi va ta'minotning qisqarishi hamma joyda narxlarni oshiradi. [6]

2-jadval

2022-yilga nisbatan O'zbekistonning tashqi savdo aylanmasi

Tashqi savdo aylanmasi, mln AQSH dollarida	O'tgan yilning mos davriga nisbatan, O'tgan yilning mos davriga nisbatan oshgan	Tashqi savdoda eksport ulushi, O'tgan yilning mos davriga nisbatan oshgan	Import ulushi, mln AQSH dollarida
13155.8\$	174.8%	12.8%	73831.1\$

Manba: O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi ma'lumotlari

[https://qalampir.uz/uz/news/uzbekistonda-ozik-ovk-at-importi-nega-kupaygani-ma-lum-k-ilindi-62357:](https://qalampir.uz/uz/news/uzbekistonda-ozik-ovk-at-importi-nega-kupaygani-ma-lum-k-ilindi-62357)
<https://www.amerikaovozi.com/a/6580581.html>

2022-yil 1-choragida O'zbekistonning tashqi savdo aylanmasi **13 155,8** mln dollarni tashkil etib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan **174,8** foizga oshgan. Tashqi savdoda eksport ulushi ijobiy o'zgarib, o'tgan yilning 1-choragiga nisbatan **12,8** foizga oshib, **43,9** foizni tashkil etdi. Umumiy eksport hajmi **5 772,2** mln dollar (238,7%)dan iborat bo'lgan. Import ulushi esa **56,1** foizgacha pasaydi va **7 383,1** mln dollar (o'sish 144,6%)ni tashkil etdi. [3] Mazkur tahliliy ma'lumotda 2021-yilning yanvar-mart oylariga nisbatan joriy yilda Respublikaning tashqi savdo aylanmasida oziq-ovqat

mahsulotlari importining ulushi va hajmini yuqori sur'atlarda o'sishiga ta'sir ko'rsatgan omillar tahlili asosida, sabablarni yoritishga xarakat qilingan. Davlat statistika va Davlat bojxona qo'mitalarining ma'lumotlariga muvofiq joriy yil yanvar-mart oylarida mamlakat oziq-ovqat mahsulotlari importining tarkibi 2021-yil importining tarkibiga nisbatan sezilarli darajada o'zgargan. Xususan, margarin va o'simlik yog'i, go'sht, kartoshka va boshqa qishloq xo'jaligi mahsulotlari ulushi ortgan.

3-jadval

2022-yilga nisbatan O'zbekistonning import ulushi

Tashqi savdo aylanmasi, mln AQSH dollarida	O'tgan yilning mos davriga nisbatan, O'tgan yilning mos davriga nisbatan oshgan	Tashqi savdoda eksport ulushi, O'tgan yilning mos davriga nisbatan oshgan	Import ulushi, mln AQSH dollarida
13155.8\$	174.8%	12.8%	73831.1\$

2022-yil yanvar-mart oylarida mamlakat oziq-ovqat mahsulotlari importining tarkibi 2021-yil importining tarkibida margarin va o'simlik yog'i, go'sht, kartoshka va boshqa xo'jaligi mahsulotlari ulushi ortgan.

4-jadval

O'zbekistonning 2021-2022-yillardagi Import geografiyasi va BMT FAO oziq-ovqat narxlar indeksi

Import geografiyasi, mln AQSH dollarida			BMT FAO oziq-ovqat narxlar indeksi, Narxlar indeksi foizda oshgan		
Qozog'iston	Rossiya federatsiyasi	Braziliya	2022-yil mart indeksi	2022-yil fevral indeksiga nisbatan	2021-yil mart indeksiga nisbatan
309.7\$	205.2\$	97.5\$	159.3%	13.6%	33.6%

Manba: O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi ma'lumotlari

[https://qalampir.uz/uz/news/uzbekistonda-ozik-ovk-at-importi-nega-kupaygani-ma-lum-k-ilindi-62357:](https://qalampir.uz/uz/news/uzbekistonda-ozik-ovk-at-importi-nega-kupaygani-ma-lum-k-ilindi-62357)
<https://www.amerikaovozi.com/a/6580581.html>

Shunindek, import geografiyasi, mahsulot turlarining ulushi va hajmi ham nisbatan o'zgargan bo'lib, asosiy mahsulot import qilib olingan davlatlar ichida birinchi o'ringa Qozog'iston **309,7** mln dollar, ikkinchi o'ringa Rossiya Federatsiyasi

205,2 mln dollar va uchinchi o'ringa **97,5** mln dollar hajm bilan Braziliya davlati chiqqan.

Tahlillarga tayanadigan bo'lsak, mamlakat importining ortishiga quyidagi omillar ta'sir ko'rsatgan: 2022-yil mart oyida BMTning Oziq-

ovqat va qishloq xo'jaligi tashkiloti (OQT) ma'lumotiga ko'ra, OQT Oziq-ovqat narxlarini indeks 159,3 punktni tashkil etib, fevral oyiga nisbatan 12,6 foizga va 2021-yil mart oyi Indeksiga nisbatan 33,6 foizga yuqori bo'lgan. Davlat Statistika qo'mitasi ma'lumotiga ko'ra, O'zbekistonda 2022-yil 1-choragida 201,6 mln dollarlik bug'doy import qilingan bo'lib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 62,1 mln dollar (43,9%)ga oshgan. Shu bilan birga, mazkur davrda 803,6 ming tonna, o'tgan yilga nisbatan 88 ming tonnaga ko'p bug'doy import qilingan. O'rtacha sotib olingan bug'doy narxi o'tgan yilning mos davriga nisbatan 128,7 foizga qimmat bo'lgan. [3]

Birinchi omil – bu Rossiya Federatsiyasi va Belarus davlatlariga nisbatan Amerika Qo'shma Shtatlari, Yevroittifoq va boshqa rivojlangan davlatlar tomonidan qo'llanilgan misli ko'ril-magan iqtisodiy sanksiyalar jahon oziq-ovqat bozorida narxlarning va logistika tariflarini yuqori sur'atlarda o'sganligidir. Buning natijasida nafaqat yevropa iqtisodiyoti balki butun dunyoga yuzaga keladigan narxlar qimmatlashuvi va oziq-ovqat xavfsizligi muammolarini keltirib chiqazadi. Buning yuzaga keladigan muammolarga har doimo tayyor turish lozim.

5-jadval

2022-yil 1-chorak qismiga nisbatan bug'doy importi va kartoshka importi

Bug'doy importi			Kartoshka importi		
2022-yil 1-chorak qismiga nisbatan					
O'tgan yilning mos davriga nisbatan					
import qilingan	foizda	tonnada	import qilingan	foizda	tonnada
201.6\$	43.9%	88000	38.6\$	168%	75.1

Manba: O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi ma'lumotlari

[https://qalampir.uz/uz/news/uzbekistonda-ozik-ovk-at-importi-nega-kupaygani-ma-lum-k-ilindi-62357:](https://qalampir.uz/uz/news/uzbekistonda-ozik-ovk-at-importi-nega-kupaygani-ma-lum-k-ilindi-62357)
<https://www.amerikaovozi.com/a/6580581.html>

Hisob-kitobga ko'ra, bug'doy importining 62,1 mln dollarga o'sishiga joriy yilda sotib olingan bug'doy o'rtacha narxining 128,7 foizga qimmatlashganligi 40,0 mln dollar (64,4%) hajmda hamda 88,0 ming tonna ko'p bug'doy sotib olingani 22,1 mln dollar (35,6%)ga oshishiga ta'sir ko'rsatdi. Huddi shunday, un importi 28,8 mln dollarni tashkil etgan bo'lib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 10,8 mln dollar (60 %)ga oshgan. Import qiymatining oshishiga sotib olingan unning o'rtacha narxini 141,2 foizga oshganligi 7,4 mln dollar (69,1%)ga import qiymatini oshishiga ta'sir ko'rsatdi. Import qilingan un hajmining 10,9 ming tonnaga (60,6%) oshganligi, import qiymatini 3,3 mln dollarga (30,9%) oshishiga sabab bo'ldi. Kartoshkaning import hajmi 38,6 mln dollarni tashkil etib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 24,2 mln dollar (168%) ga oshgan. Kartoshka importining 24,2 mln dollarga o'sishiga joriy yilda sotib olingan kartoshkaning o'rtacha narxini 180,3 foizga qimmatlashganligi 11,6 mln dollar (47,8%) hajmda hamda 75,1 ming tonnaga ko'p sotib olinganligi esa 12,6 mln dollar (52,2%)ga oshishiga ta'sir ko'rsatdi. Margarin va margarin mahsulotlarining import qiymati 71,6 mln dollar (555,0%)ga oshib, 84,5 mln dollarni tashkil etdi. Margarin va margarin mahsulotlari importi hajmi o'tgan yillning mos davriga nisbatan 50,2 ming tonnaga oshib,

umumiy import qiymatini 98,1 foizga va hajmining 70,3 mln dollarga (544%) oshishi ta'sir ko'rsatgan. O'rtacha narxning 110,4 foizga qimmatlashishi esa eksport qiymatini 1,9 foizga oshishiga ta'sir ko'rsatdi. Huddi shunday boshqa mahsulotlarni ham import hajmini oshishiga narxlarning o'zgarishi va reeksport hajmi katta ta'sir ko'rsatgan. [3]

Ikkinchi omil – bu O'zbekiston Respublikasi tomonidan bir qator qo'shni davlatlarga bug'doy, un va o'simlik yog'i mahsulotlarini eksport va reeksport qilish hajmining o'sishi hisoblanadi. Un eksportining ta'siri ham bug'doy va bug'doy unining importiga sezilarli darajada ta'sir ko'rsatdi. Shu davrda 85,8 mln dollarlik 270,9 ming tonna, o'tgan yilga nisbatan 42,2 ming tonna yoki 118,5 foizga ko'p bug'doy uni eksport qilingan. Un importi qiymatining o'sishiga eksport miqdorining ortganligi 17,5 mln dollar (125,7%) hajmda ta'sir ko'rsatgan. Ko'rinib turibdiki, O'zbekistonga import qilingan unga nisbatan mamlakatimizdan eksport qilingan un hajmi 2,9 barobar ko'pdir. Joriy yil yanvar-mart oylarida 25,7 ming tonna bug'doy eksport qilinib, o'tgan yilga nisbatan 25,3 ming tonnaga (87,3 barobar) ko'pdir. Shuningdek, bug'doy reeksportining 23,3 ming tonnaga oshganligi import hajmini 7,3 mln dollarga oshishiga omil bo'lgan. Bug'doy va bug'doy unining asosiy

importyori Afg'oniston Islom Respublikasi hisoblanib, joriy yil yanvar-mart oylarida **25,7** ming tonna bug'doy va **270,9** ming tonna bug'doy uni O'zbekistondan import qilgan. Un eksporti o'tgan yilning mos davriga nisbatan **118,5** foizga oshgan yoki **42,2** ming tonnaga ko'paygan. Joriy yil 1-choragida **9554,4** tonna o'simlik yog'i eksporti amalga oshirilib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan **12,6** barobarga ko'paygan. Bu o'z navbatida o'simlik yog'i importini **10,1** mln dollarga oshirgan bo'lsa, sotib olingan o'rtacha narxlarni **112,5** foizga o'sishi esa import qiymatini **9,5** mln dollarga oshishiga sabab bo'lgan. Qolgan import qilingan mahsulotlar bo'yicha ham ichki iste'molni oshganligi va ulardan tayyorlangan tayyor mahsulotlarni eksportga yo'naltirish hajmlarini ko'payish tendensiyasi mavjudligi asosida ham tahlil qilish mumkin.

2022-yilning birinchi choragida O'zbekiston aholisining real daromadlari o'sishi 3,3 foizgacha sekinlashdi. Ushbu ko'rsatkich 2021-yilda 7,7 foizga teng bo'lgandi. Aholining daromadlar tarkibida pul o'tkazmalarining ulushi kamaydi. Shu bilan birga, aholi jon boshiga umumiy daromad 3,2 mln so'mgacha ko'tarildi. Yanvar-mart oylarida aholining umumiy daromadlari 114,2 trln so'mga yetdi. Davlat statistika qo'mitasi ma'lumotlariga ko'ra, o'sish nominalda 15,9 foizni, real ko'rsatkichda (inflyatsiyani hisobga olgan holda) 5,4 foizni tashkil etdi. O'sish sur'ati 2021 yilning birinchi choragidagi xuddi shu ko'rsatkichlarga — 22,1% va 9,8% nisbatan pasaygan. 2022 yilning ilk uch oyida aholi jon boshiga umumiy daromadlar 3,2 mln so'mgacha ko'tarildi. Nominal ko'rinishda tushumlar 13,6 foizga, real qiymatda 3,3 foizga (iste'mol narxlarini hisobga olgan holda) o'sdi. Bu ko'rsatkichlar ham 2021 yilning birinchi choragiga — 19,8% va 7,7% nisbatan kamroq hisoblanadi.

O'zbekistonda 2021-yilga nisbatan 2022-yilda oziq-ovqat mahsulotlariga nisbatan nooziq-ovqat mahsulotlariga aholi daromadining ulushi ortgan. Aholi daromadi yanvar oyiga kelib o'rtacha 5 million so'm bo'lsa uning 30% oziq-ovqat mahsulotlari qolgan 60% nooziq-ovqat mahsulotlariga to'g'ri kelmoqda. Toshkent shahrida aholi jon boshiga nisbatan nominal daromadlar 7,71 mln so'mni tashkil qilib, poytaxt uch oy davomida yetakchilikni saqlab qoldi. Keyingi o'rinlarda Navoiy viloyati — 5,76 mln so'm, Toshkent viloyati — 3,77 mln so'm, Buxoro viloyati — 3,47 mln so'm qayd etildi. Aholining nominal daromadlari eng past hudud esa Namangan viloyati bo'ldi — 2,33 mln so'm. Muhim jihatlardan biri

aholi daromadlari Navoiy (+10,2 foiz), Farg'ona (+9,4 foiz) va Toshkent (+6,5 foiz) viloyatlarida oshdi. Buxoro (-0,6 foiz), Surxondaryo (-0,4 foiz) viloyatlari va Qoraqalpog'istonda (-0,3 foiz) esa aholi daromadlari biroz kamaydi [5].

Xulosa va takliflar

Xulosa o'rnida ta'kidlash joizki, oziq-ovqat mahsulotlari importining umumiy hajmini o'sishiga o'rtacha import narxlarining qimmatlashuvi qariyb **55-60** % darajasida ta'sir ko'rsatgan, import qilingan mahsulotlar va ulardan tayyorlangan mahsulotlar eksporti hajmining o'sishi **40-45** % ta'sir ko'rsatganini ko'rishimiz mumkin. Hukumatning sa'y-harakatlari birinchi navbatda mamlakatimizda oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash orqali aholining o'zimizda ishlab chiqarilmay import qilinadigan oziq-ovqat mahsulotlariga bo'lgan ehtiyojini uzluksiz, to'liq assortimentda va hajmda qondirishga hamda bozorlarda narx-navo barqarorligini ta'minlashga qaratilgan choralar ko'rish lozim. Shuningdek, yuqori sur'atlarda rivojlanayotgan respublika oziq-ovqat sanoati korxonalarining xomashyo, yarim tayyor va to'ldiruvchi mahsulotlar bilan ta'minlashga ham katta e'tibor qaratilmoqda. Markaziy Osiyodagi kambag'allar uchun oziq-ovqat xarajatlari oylik xarajatlarining hammasi bo'lmasa ham, katta qismini tashkil qiladi. O'zbekistonliklarning 10 foizdan ortig'i oziq-ovqat ta'minotidan aziyat chekmoqda. Oziq-ovqat muammosini Qirg'iziston bilan solishtirish mumkin, biroq O'zbekistondagi vaziyat Tojikistondan yaxshiroq. Markaziy Osiyo davlatlari oziq-ovqat ishlab chiqarishni ko'paytira oladimi? Katta ehtimol bilan qishloq xo'jaligiga to'g'ridan to'g'ri investitsiyalar oqimi oshmayapti, xususiy qarz esa allaqachon oshgan. Mintaqaviy biznes xatarlari yana oshmoqda. Suv bilan bog'liq vaziyat ham achinarli. Mamlakatimizda tashqi savdoni liberallashtirish, turli xil ta'rif va nota'rif cheklolarni kamaytirish, monopoliyani bartaraf etish choralari bosqichma-bosqich amalga oshirish lozim. Shuningdek, tashqi savdo geografiyasi, mahsulot va xomashyo turlari hamda reteylerlar va ta'minotchi davlatlarni diversifikatsiya qilish orqali iqtisodiyotning barqaror o'sishi, aholini oziq-ovqat mahsulotlariga bo'lgan talabini qondirish va narxlar barqarorligini ta'minlash borasida ham amaliy choralar ko'rish lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. “Iqtisodiyotni raqamlashtirish sharoitida bo‘lajak mutaxassislarni innovatsion faoliyatiga tayyorlashda zamonaviy texnologiyalardan foydalanish samaradorligi”. Xalqaro ilmiy-amaliy anjuman maqolalar to‘plami . Toshkent “IQTISODIYOT”2021-yil.
2. “O‘zbekistonda xo‘jalik yuritishning yangi biznes modellari-iqtisodiy o‘shishni ta‘minlash va kambag‘allikni qisqartirish asosi sifatida “ Respublika Ilmiy-amaliy anjumani .Toshkent -2021-yil.
3. O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasi ma‘lumotlari, <https://qalampir.uz/uz/news/uz-bekistonda-ozik-ovk-at-importi-nega-kupaygani-ma-lum-k-ilindi-62357>: <https://www.amerikaovozi.com/a/6580581.html>
4. O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasi ma‘lumotlari, <https://www.gazeta.uz/oz/2022/04/29/total-income/#>.
5. O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasi ma‘lumotlari, <https://www.spot.uz/oz/2022/04/20/gdp/>
6. Xalq so‘zi “Oziq-ovqat xavfsizligini ta‘minlash davr talabi” 04.08.2022 son <https://xs.uz/uz/post/oziq-ovqat-havfsizligini-taminlash-davr-talabi>.

